

Karimov Odiljon Toxirovich,
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil
tadqiqotchisi

TALABALARNI IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN "ENRICHMENT" YONDASHUV ASOSIDA ISHLASHGA TAYYORLASH METODIKASIGA DOIR O'QUV LOYIHALARINI SHAKLLANTIRISH

UO'K: 371.212.3

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_5_4](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_5_4)

KARIMOV O.T. TALABALARNI IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN "ENRICHMENT" YONDASHUV ASOSIDA ISHLASHGA TAYYORLASH METODIKASIGA DOIR O'QUV LOYIHALARINI SHAKLLANTIRISH

Ushbu maqolada talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "enrichment" yondashuv asosida ishlashga tayyorlash metodikasiga doir o'quv loyihalarini shakllantirish masalasi tahlil qilingan. Jumladan, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, turli yo'nalishlar bo'yicha iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy pedagogika umumiy amaliyotida iqtidorli bolalar tasnifi, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda "enrichment" yondashuvning ahamiyati, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash uchun foydalaniladigan metodlar haqida fikr yuritilgan.

Maqolada iqtidorli o'quvchining iqtidorini boyitish, qo'llab-quvvatlash alohida o'ringa ega ekanligi, bo'lg'usi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari iqtidorli o'quvchilar "enrichment" yondashuv asosida ishlashda qaysi jihatlarga e'tibor qaratishlari zarurligi, iqtidorli o'quvchini rag'batlantirish, tanqid qilish masalalari ochib berilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: iqtidorli o'quvchi, iste'dod, "enrichment" yondashuv, ijodiy mashg'ulotlar, muloqotga kirishimli, qobiliyatini rivojlantirish, dunyoqarashni kengaytirish.

КАРИМОВ О.Т. ФОРМИРОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЕКТОВ ПО МЕТОДИКЕ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К РАБОТЕ С ОДАРЁННЫМИ УЧАЩИМИСЯ НА ОСНОВЕ ПОДХОДА "ENRICHMENT"

В данной статье анализируется вопрос формирования образовательных проектов на основе методики подготовки учащихся к работе с одаренными учениками на основе обогащающего подхода. В частности, обсуждались работа с одаренными учащимися, поддержка талантливой молодежи в различных направлениях, классификация одаренных детей в общей практике современной педагогики, важность обогащающего подхода в работе с одаренными учащимися, методы работы с одаренными учащимися.

В статье раскрывается важность развития и поддержки таланта одаренного ученика, на какие аспекты следует обратить внимание будущим учителям начальных классов при работе с одаренными учениками на основе подхода обогащения, поощрения и критики одаренного ученика.

Ключевые слова и понятия: одаренный ученик, талант, подход "enrichment", творческая деятельность, коммуникативность, развитие способностей, расширение кругозора.

KARIMOV O.T. FORMATION OF EDUCATIONAL PROJECTS ON THE METHODOLOGY OF PREPARING STUDENTS TO WORK WITH GIFTED STUDENTS BASED ON THE "ENRICHMENT" APPROACH

This article analyzes the issue of developing educational projects based on the methodology of preparing students to work with gifted students using an "enrichment" approach. In particular, the discussion focused on work with gifted students, support for talented youth in various areas, classification of gifted children in the general practice of modern pedagogy, the importance of an enriching approach in working with gifted students, and methods of working with gifted students.

The article reveals the importance of developing and supporting the talent of a gifted student, what aspects should be paid attention to by future primary school teachers when working with gifted students based on the approach of "enrichment", encouragement and criticism of a gifted student.

Key words and concepts: gifted student, talent, "enrichment" approach, creative activity, communication skills, development of abilities, broadening horizons.

Kirish. Bugungi kunda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, turli yo'nalishlar bo'yicha iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash masalasiga dunyo miqyosida alohida e'tibor qaratilmoqda. Ommaviy axborot vositalaridan olayotgan ma'lumotlarimizdan ayon bo'lmoqdaki, globallashuv davrida iqtidorlarga shart-sharoitlar yaratish, iqtidorlilarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ota-onalar o'ziga xos iqtidorga ega farzandlarini maxsus ta'lim muassasalarida, maxsus tayyorlangan pedagoglar qo'lida ta'lim olishiga harakat qilishmoqda. Bo'lajak o'qituvchilar iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda, avvalo, ularni qo'llab-quvvatlashga intilishi kerak.

Mavzuning dolzarbligi. Dunyo pedagogikasi umumiy amaliyoti iqtidorli bolalarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Intellektual iqtidorli bolalar. Bu toifaga yuqori darajadagi aql va akademik qobiliyatga ega bo'lgan bolalar kiradi. Ular analitik fikrlash, ijodiy qobiliyat va ma'lumotni tezda qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin

2. Ijodiy iqtidorli bolalar turli yo'nalishlarda ijodiy yondashish qobiliyatiga ega: masalan, rasm, musiqa, adabiyot, raqs va san'atning boshqa turlari. Ular muammolarni hal qilishda nostandart yondashuvdan foydalanadilar va o'zlarining original fikrlash tarzi bilan tengdoshlaridan ajralib turadilar

3. Turli xil jismoniy qobiliyatlarga ega: yuqori moslashuvchanlik, muvofiqlashtirish, kuch yoki chidamlilik. Ular sportga yoki faol faoliyatga qiziqish bildiradilar va bu sohada sezilarli natijalarga erishadilar

4. Hissiy aql va ijtimoiy qobiliyatlarga ega. Ular odamlar bilan osongina aloqa o'rnatadilar, hamdardlik va jamiytdagi nizolarni hal qilishda yaxshi qobiliyatga ega.

5. Texnik iqtidorli bolalar texnologiya, informatika va muhandislik sohalarida g'ayrioddiy qobiliyatlarga ega. Ular qurilmalarni qismlarga ajratish va yig'ish, dasturlash, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va hokazolarga qiziqish bildiradilar

Har qanday iqtidorli bolalarning iqtidorini boyitish, rag'batlantrib borish zarur. Shundagina u o'zining fazilatlarini namoyon eta oladi. Iqtidorni aniqlash va ro'yobga chiqarishda esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining alohida o'rni bor. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'qituvchisining asosiy vazifasi har bir o'quvchining iqtidorini rivojlantirishga hissa qo'shishdir. Shuning uchun ham bo'lg'usi boshlang'ich sinflardagi iqtidorli o'quvchilar bilan **"enrichment"** yondashuv asosida ish olib borish zarur.

Enrichment – inglizcha so'z bo'lib "boyitish" ma'nosini bildiradi. Ruschadagi tarjimasini "накопительного", "обогащение" so'zlariga to'g'ri keladigan bu yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchining bilimini boyitish, qobiliyatini qo'llab-quvvatlash, o'quvchidagi mavjud iqtidorni imkon qadar yuzaga chiqarishga qaratiladi.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlar tahlili. Zamonaviy pedagogikaga oid adabiyotlarni tahlil etar ekanmiz shunga amin bo'lamizki, iqtidorli o'quvchining salohiyatini ochib berish pedagogning mahoratiga bog'liq. Jumladan, Ukrainaning Ivan Franko nomidagi Jitomir davlat uni-

versiteti professori, pedagogika fanlari doktori Y.Y.Antonova o'zining ilmiy tadqiqotlarida iqtidorlilarni qo'llab-quvvatlash borasida fikr bildirar ekan:

- Deyarli har bir inson iqtidorli, lekin har kim o'ziga xos tarzda iqtidorli. O'qituvchining vazifasi - shakllanayotgan shaxsga uning ustun qobiliyatlari va iste'dodlarini aniqlash va yuqori darajada oshirishga yordam berishdir.

- Bo'lajak o'qituvchilar o'quv jarayonida o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish orqali o'quvchilarning iqtidorini aniqlash va rivojlantirishni o'rganadilar. Zero, iqtidorli o'quvchi iqtidorli o'qituvchidan boshlanadi (zakovat aql bilan charxlanadi, fe'l-atvor xarakterga ko'ra shakllanadi, shaxs shaxs bilan shakllanadi), - deya ta'kilaydi¹. Demakki, talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "enrichment" yondashuv asosida ishlashga tayyorlash metodikasiga doip o'quv loyihalarini shakllantirish davr talabi.

R.Ishmuamedov, M.Yuldashevlarining tadqiqotlariga asoslanib aytish mumkinki, talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "enrichment" yondashuv asosida ishlashga tayyorlash metodikasiga doip o'quv loyihalarini shakllantirishda noan'anaviy – nostandart darslarga e'tibor qarash zarur. Chunki iqtidorli o'quvchi har bir darsdan yangilik, o'zgachalik kutadi. Shuning uchun:

1. Musobaqa va o'yin shaklidagi darslar: *tanlov, turnir, estafeta, "duel", QZK (KVN), rolli o'yin, krossvord, viktorina*.

2. Ijtimoiy amaliyotda ma'lum bo'lmagan ish shakllari, janrlari va uslublariga asoslangan darslar: *tadqiq etish, ixtirochilik, birlamchi manbalar tahlili, sharh, "Aqliy hujum", intervyu, reportaj, taqriz*.

3. Muloqotning og'zaki shaklini eslatuvchi darslar: *"Matbuot anjumani", auksion, miting, munozara, teleko'prik, "jonli gazeta", og'zaki jurnal*.

4. O'quv materialini noan'anaviy tashkil etishga asoslangan darslar: *donolik darslari, ochiq tan olish, "dublyor harakat boshlaydi" darsi*.

5. Xayollashgan darslar: *ertak dars, sovg'a dars, XXI asr darsi*.

6. Muassasa va tashkilotlar faoliyatiga asoslangan darslar: *sud, tergov, patent byurosi, ilmiy kengash, muharrirlar kengashi, fermerlik*².

Bo'lg'usi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari uchun mutaxassislar quyidagi metodlarni iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash uchun foydalaniladigan asosiy usullar sifatida tavsiya qiladilar:

1. **Individualizatsiya:** Bu metodda o'quvchilarning har biri o'zining shaxsiy iqtidorlariga, talablari va o'rganish usullariga moslashtirilgan individual dasturlar va vazifalar bilan ta'lim olishadi. Bu usul o'quvchilarning o'zlarining qobiliyatlarini rivojlantirish va ularga o'z-o'zini o'rganish imkonini beradi.

2. **O'z o'zini boshqarish:** Bu usulda o'quvchilar o'zlarining o'zlarini boshqarishini o'rganish uchun imkon beriladi. Ular o'z vazifalarini va maqsadlarini o'zlashtirish orqali o'zlarini boshqarishni o'rganishadi. Bu ularga o'zini o'rganish va o'zini ilhomlashtirishga imkon beradi.

3. **Guruh bo'lib ishlash:** Guruh ishlash metodida iqtidorli o'quvchilar bir-birlari bilan ko'nikmalarni almashish va o'zaro o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ular o'quv muhitida guruh ichida ishlash, fikr almashish va o'zaro ish birligini o'rganishlari, yaratuvchanliklarini rivojlantirish va ularga alohida yondashuv berishni o'rgatadi.

4. **Masofaviy ta'lim:** Bu usulda iqtidorli o'quvchilar uchun masofaviy o'quv platformalari, onlayn ta'lim resurslari va interaktiv darslar orqali o'qish imkoniyati yaratiladi. Ular o'quvchilar uchun onlayn platformalar va resurslardan foydalanish, o'z-o'zini rivojlantirish va qiziqishlariga muvofiq ta'lim olish imkoniyatini beradi.

5. **Ijodiy mashg'ulotlar:** Ijodiy mashg'ulotlar iqtidorli o'quvchilar uchun kreativlik va yaratuvchanlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu usulda ularga ijodiy vazifalar, yaratish, muammolar yechish, innovatsiyalar qilish va ta'lim vositalarini o'zgartirish imkoniyati beriladi³.

² Ishmuamedov R. Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.: 2017. 116 b.

³ Yusupova X.R. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodlari. <https://zenodo.org/records/8062760>

¹ Антонова Е.Е. Концепция обучения одарённых студентов в высших педагогических учебных заведениях // Педагогика, психология. – № 3 (3). – 2010. – 20-23 с.

Taniqli pedagog olim va amaliyotchi Shalva Aleksandrovich Amonashvili o'zining eksperimental maktabida hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika mashg'ulotining ajoyib metodikasini ishlab chiqdi va hayotga tatbiq etdi¹. Sh.A.Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda olijanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug'dirmoq;
- bolaning qalbi va yuragini ulug'lamoq;
- boladagi bilishga bo'lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;
- keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tug'dirmoq;

- ideal tarbiya – bu o'z-o'zini tarbiyalamoq.

Sh.A.Amonashvili o'zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi:

- insonparvarlik;
- shaxsiy yondashuv;
- muloqot mahorati;
- oila pedagogikasining qo'shimcha imkoniyati;
- o'quv faoliyati.

Sh.A.Amonashvili texnologiyasida bola faoliyatini baholash alohida ahamiyatga ega. Baholardan foydalanish o'ta cheklangan. Miqdoriy baholashdan ko'ra sifatli baholashga urg'u beriladi, ya'ni tavsif, natijalar paketi, o'z-o'zini baholash.

Tadqiqotning maqsadi. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "enrichment" yondashuv asosida ishlashga tayyorlash jarayonida ham o'quvchini bilimini baholash emas, balki unga yanada ko'tarinki ruh berish, bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, iqtidorli o'quvchi qiziqayotgan sohani chuqurroq o'rganishga imkon berishga sharoit yaratib berishga o'rgatish zarur. Shu maqsadda bo'lg'usi boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga iqtidorli o'quvchi tengdoshlariga qaraganda tezroq rivojlanishi, ma'lumotni yaxshiroq o'zlashtirib atrofdagi dunyoga va sodir bo'layotgan barcha narsalarga qiziqish bildirishini anglatish va o'qituvchi iqtidorli o'quvchi bilan ishlashda doimo uni qo'llab-quvvatlashi, bilimlarini boyitishga ko'mak berishga e'tibor qaratishi zarurligini ko'rsatib berishdan iborat.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa **tadqiqot ob'yekti** - bo'lajak o'qituvchilarning iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayonini chuqur tahlil etish zarur.

Asosiy qism. Insoniylik falsafasi va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ijtimoiy pedagogik ishning shunday shakllarini vujudga keltirishi kerakki, bunda har bir bola o'z imkoniyatlarini namoyon qila olishi uchun qulaylik yarata olishi, madaniy muhitni to'laligicha o'zlashtirishi va o'zining barcha quvvatlarini ro'yobga chiqarishi lozim. Bu esa iqtidorli o'quvchining iqtidorini boyitish, qo'llab-quvvatlashda alohida o'ringa ega.

"Ta'lim tizimida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar nafaqat bolalar bog'chalari, boshlang'ich sinflarda yoki o'rta maktablarda, balki o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi, hatto oliy o'quv yurtlari ta'limi amaliyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlar asosida tashkil etiladigan darslar dasturda qayd etilgan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadini hal qilishga qaratilganligi, ta'lim amaliyotidagi muhim muammolarni yechishga yo'naltirilganligi, tabiyanuvchini ham aqlan, ham jisman, ham ruhan toliqishdan asrashga intilganligi bilan ahamiyatlidir"².

Rossiya pedagogikasida iqtidorlilar bilan boyitish (обогащение) yondashuvi asosida ish olib borish taklif etilgan³. Ushbu yondashuvda mashg'ulot jarayonida boshqa mavzular, muammolar yoki fanlar bilan aloqa o'rnatish orqali ma'lum mavzularni o'rganishdan tashqariga chiqib, sifat jihatidan farq qiladigan o'quv mazmuniga qaratilgan. Mashg'ulotlar bolalarning iste'dod turiga mos keladigan sevimli mashg'ulotlarida bepul, tartibga solinmagan mashg'ulotlar uchun yetarli vaqtga ega bo'lishi uchun rejalashtirilgan. Bundan tashqari, boyitilgan dastur bolalarga turli xil aqliy mehnat usullarini o'rgatishni o'z ichiga oladi, tashabbuskorlik, o'z-o'zini nazorat qilish, tanqidiylik, dunyoqarashning kengligi va boshqa fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, o'quv ma'lumotlarini taqdim etishning tabaqalashtirilgan shakllaridan foydalanish orqali o'rganishni individual-

¹ Yusupova X.R. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodlari. <https://zenodo.org/records/8062760>

² Husanboyeva Q., Niyoymetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. – T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2022. 239-b.

³ Husanboyeva Q., Niyoymetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. – T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2022. – 243-b.

1-jadval. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan o'tkazilgan enrichment (boyitish) yondashuvi asosida ishlashga tayyorlash metodikasi asosidagi so'rovnoma natijalari

4.	Iqtidorli o'quvchi nutqini qanday baholaysiz?	Javob
A)	Yaxshi nutqqa ega, notiq bo'ladi	204
B)	O'ylanib so'zlaydi, suhbat jarayonida hayajonlanadi	136
V)	Nutqi yo'q bo'ladi, fikrini erkin ifodalashga o'rgatish kerak	32
G)	Boshqa javob	28

lashtirishni ta'minlaydi. Bunday o'qitish innovatsion ta'lim texnologiyalari doirasida, shuningdek, talabalarni ilmiy loyihalarga jalb qilish va maxsus treninglardan foydalanish orqali amalga oshirishi mumkin. Innovatsion o'qitishning mahalliy variantlarini boyitilgan o'quv dasturlariga misol qilib ko'rsatish mumkin

Rolli o'yinlar shaklidagi interfaol ta'lim usullari talabaga kelgusidagi hayoti va faoliyatini yo'lga qo'yishda ham asqatishi mumkin. Bunday o'yinlar talabada nutqiy ko'nikmalarni shakllantiradi: u uyushtirilgan sharoitda qanday so'zlash yoki so'zlamaslik kerakligini o'rganib boradi. Shu jihatdan rolli o'yinlar talabani real borliqda o'ynaydigan rollari uchun o'ziga xos repetitsiya bo'ladi. To'g'ri tanlangan va taqsimlangan o'quv rollari talabani analitik tafakkur, vaziyatni to'g'ri baholash, sharoitdan kelib chiqib, sog'lom qaror qabul qilishga odatlantiradi¹.

Tadqiqotning metodi. Tadqiqot jarayonida muammoga doir falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish; oliy ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish; sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat); pedagogik tajriba-sinov; natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini iqtidorli o'quvchilar bilan enrichment yondashuvi asosida ishlashga tayyorlash metodikasi ustida ish olib borish jarayonida talabalarining iqtidorli o'quvchi haqidagi tushunchalarini aniqlash maqsadida anketa savollariga javoblar olindi. So'rovnoma Namangan davlat universiteti, Andijon davlat pedagogika instituti, Qo'qon davlat pedagogika institutlarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi 3-bosqich 400 nafar talabalari ishtirok etgan.

O'zbek xalqida "gapdonlik", "kattalar oldida so'zlash" "mahmadonalik" yoki "kattalarga hurmatsizlik" sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun ham iqtidorlilarning nutqi ham alohida e'tibor talab qilinadigan jihat. Shu ma'noda 400 talaba ishtirokida o'tkazilgan tadqiqot jarayonida so'rovnoma "Iqtidorli o'quvchi nutqini qanday baholaysiz?" degan savolni ham kiritdik. Bo'lg'usi o'qituvchilar bu savolga asosan "gapdonlik", "kattalar oldida so'zlash" "mahmadonalik" yoki "kattalarga hurmatsizlik" emas, balki ijobiy sifat qatorida iqtidorlilarni 204 nafar – 51% talaba "Yaxshi nutqqa ega, notiq bo'ladi", - deb hisoblaydi. 136 nafar – 34% talaba esa iqtidorlilarni "O'ylanib so'zlaydi, suhbat jarayonida hayajonlanadi" deb hisoblaydi (1-jadval).

So'rovnoma ishtirok etgan talabalardan 8%i – 32 nafari "Nutqi yo'q bo'ladi, fikrini erkin ifodalashga o'rgatish kerak" degan fikrni bergan. 7%i – 28 nafari esa: "Tengdoshlari oldida notiq, ustozlar oldida kamgap", "Vaziyatdan xulosa chiqarib so'zlaydi", "Nutqi bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin" degan xulosalarni berishgan.

Savol-javob natijalari asosida shuni aytish kerakki, 51% talaba e'tirof etganidek, iqtidorlilar "Yaxshi nutqqa ega, notiq bo'ladi". Faqatgina, iqtidorli o'quvchilar sinfdoshlariga "moslasha boshlaydi, u turli yo'llar bilan o'z sinfdoshlariga o'xshash bo'lishga harakat qiladi". Xuddi shu qarash asosida iqtidorlilar so'zlashdan oldin, savolimizning b-bandida ko'rsatib o'tganimizdek "O'ylanib so'zlaydi". Notqlik borasida iqtidorlilarga: "fikrini erkin ifodalashga o'rgatish kerak" bo'ladi. Fikrini erkin bayon etishga o'rgatish uchun esa noan'anaviy darslarga e'tibor qaratish zarur.

Birorta badiiy matn yaratish o'quvchiga inson uchun o'ta zarur bo'lgan ko'plab haqiqatlarni taqdim etadigan vositadir. Buni bolalarni ertak

¹ Hasanov SH. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Andijon: "Tezkor Nashr". 2022. 26-b.

2-jadval. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan o'tkazilgan enrichment (boyitish) yondashuvi asosida ishlashga tayyorlash metodikasi asosidagi so'rovnoma natijalari

7.	Iqtidorli o'quvchining muloqotga kirishishi qay darajada?	Javob
A)	Muloqotga kirishimli, har kim bilan tezda gaplashib ketadi	224
B)	Ikkilanib, suhbatdoshining munosabatiga qarab muloqotga kiradi	136
V)	Kamgap, o'zi tanimagan odam bilan umuman muloqot qilmaydi	36
G)	Boshqa javob	4

eshitishga, ayniqsa, har xil hodisalar haqida tizimli hikoya qilishga o'rgatish orqali amalga oshirish mumkin. Masalan, bolalar bilan sinfda "Ertakchi bobo (momo)" didaktik o'yinini tashkil qilish mumkin. Odatda, bolalar nazarida bobobuvilar ertaklar xazinasiga o'xshaydi¹. Iqtidorli o'quvchilar bilan "enrichment" yondashuvi asosida ishlashda o'quvchilarning navbat bilan "ertakchi bobo" yoki "ertakchi momo" bo'lishi, qolaversa, ularning bobo yoki momo kiyimida bo'lishi nutqi ravonligi ta'minlashi bilan birga, mustaqil fikrlashini o'stiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Bu jarayonda o'qituvchi bola aytayotgan "ertakni" so'zma-so'z yozib borsa, bu o'quvchini ertak to'qishga jiddiy yondashishga, ertakni qiziqarli davom ettirishga harakat qilishga undaydi, muloqot qilish qobiliyati o'sadi.

Iqtidorlilarni atrofida gilar bilan muloqotga kirishishi uning qay darajada iqtidorli, bilimli ekanligi ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham iqtidorlilarni aniqlashda ularning muloqotga kirishishi darajasini bilish ham o'ziga xos o'ringa ega. So'rovnomamizdagi "Iqtidorli o'quvchining muloqotga kirishishi qay darajada?" degan savoliga 56% - 224 nafar talaba iqtidorlilar "Muloqotga kirishimli, har kim bilan tezda gaplashib ketadi" degan fikrni tasdiqlashgan. 136 nafar - 34% talaba esa iqtidorlilar "Ikkilanib, suhbatdoshining munosabatiga qarab muloqotga kiradi" degan fikrni bildirishgan (2-jadval).

Iqtidorlilar "Kamgap, o'zi tanimagan odam bilan umuman muloqot qilmaydi" degan javobni 36 nafar - 9% talaba tanlagan. 4 nafar talaba iqtidorlilar "Hamma bilan ham muloqotga kirishavermaydi", "Suhbatdoshining munosabatiga qarab muloqotga kirishadi" degan fikrni bergan.

Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchining muloqotga kirishimli bo'lishiga e'tibor qaratish zarur. Iqtidorli o'quvchilar bilan "enrichment" yon-

dashuvi asosida ishlashda o'quvchilar o'qituvchi ishtirokida suhbat jarayonini o'zlari tomonidan amalga oshirilishi kerak. Shu asosda quriladigan zamonaviy suhbat metodi o'quvchi ma'naviyatini sog'lomlashtirish, dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni o'zlashtirish, mantiqiy va mustaqil tafakkurini ta'minlashda qo'l keladigan metodlardan biridir². Lekin yuqorida fikr bildirganimizdek, oddiy o'quvchilar orasida o'zini noqulay sezgan iqtidorli o'quvchi "sergaproq", "o'zini tuta olmaydigan" yoki "sal g'alatiroq" ham ko'rinishi mumkin. Shuning uchun "sal g'alatiroq" ko'ringan bola bilan suhbat metodi asosida ish olib borib "dilige qo'l solib ko'rishimiz" kerak, bildirgan to'g'ri fikrlarini qay darajadadir rag'batlantirishimiz kerak. Va yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar boladan qandaydir jismoniy yoki ruhiy nuqson bo'ladigan bo'lsa, bunday bola bilan muloqotda yanada e'tiborliroq bo'ish kerak.

Shubhasiz, har qanday bolaning hech kim daxl qila olmaydigan huquqi - bu ta'lim olish huquqidir. Imkoniyati cheklangan bolalarning uyda, internatda va boshqa alohida davlat maxsus muassasalarida ta'lim olishining yuzaga kelgan tizimi bolaga yetarli darajada sifatli ta'lim olish imkoniyatini beradi, biroq muloqotga kirishish ko'nikmasining yo'qligi sababli bu bilimlar talab qilinmay qolib ketadi. Shunday qilib, jamiyat moddiy va ma'naviy boyligini yo'qotadi, cheklangan imkoniyatli odam esa jamiyatni yo'qotib, odamovi bo'lib, o'zini ortiqcha his qila boshlaydi³.

Mashg'ulotlar davomida rag'batlantirishning samarasi yuqori darajada bo'lishi ko'plab pedagoglar, mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan va bu masalada bir qator ilmiy tadqiqotlar olib

² Husanboyeva Q. va boshq. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. - T.: "Innovatsiya-Ziyo". 2020. - 127-b.

³ Mamarasulov B.SH. Boshlang'ich ta'limda inkyuziv ta'lim. Darslik. - Andijon: "Durdona materiallar", 2024. - 7-b

¹ Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. -T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2022. 243-b.

3-jadval. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan o'tkazilgan enrichment (boyitish) yondashuvi asosida ishlashga tayyorlash metodikasi asosidagi so'rovnoma natijalari

10.	Iqtidorli o'quvchini maqtash kerakmi?	Javob
A)	Kerak. Iqtidorli o'quvchiga maqtov, ruhlantirish, rag'bat zarur	180
B)	Ba'zi-ba'zida maqtov, rag'batlantirish kerak	216
V)	Kerak emas, hamma qatori baholash kerak	4
G)	Boshqa javob	0

borilgan. Iqtidorlilar uchun esa rag'batlantirish alohida o'ringa ega. Shuning uchun ham bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga: "Iqtidorli o'quvchini maqtash kerakmi?", - degan savolni berdik. Savolimizga javoban, bizni qo'llab-quvvatlovchilar, rag'batlantirish: "Kerak. Iqtidorli o'quvchiga maqtov, ruhlantirish, rag'bat zarur", - deyuvchilar 45% - 180 nafar talabani tashkil etdi. "Ba'zi-ba'zida maqtov, rag'batlantirish kerak" deyuvchilar esa 216 nafarni - 54%ni tashkil etdi (3-jadval).

So'rovnomada 1% talaba esa iqtidorlilarni maqtash: "Kerak emas, hamma qatori baholash kerak", - degan xulosani bergan. Bu javob yuzasidan biz Hasanboyeva O.U. va boshqalar bir qator mutaxassislarning quyidagi fikrini bildiramiz: "...bolalarga ishonch bilan qarash, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to'g'ri taqdirlash va mustaqil faoliyatlari uchun imkoniyat yaratish kerak. Buni bolalar yuqori baholashadi"¹.

"Iqtidorli o'quvchini maqtash kerakmi?" savolining tahlili sifatida shu savolning ikkinchi tomoni, ya'ni "Iqtidorli o'quvchini tanqid qilish kerakmi?" savoliga qanday javob berishimiz kerak. Bu borada bizga R.Ishmuhamedov, M.Yuldashevlarning "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" nomli o'quv qo'llanmasi ko'mak berdi. "Aslini olganda, kim yaxshi va a'lo darajada ishlayotgan bo'lsa, ularni maqtash va ma'qullab, mehnatlarini baholash oson. Bu yerda munosabat shaklini alohida tanlashga zaruriyat yo'q. Ammo tanqid shaklini tanlash murakkabroq. Tarbiyalanuvchiga haqiqatdan ta'sir ko'rsatadigan turlari uning kasbiy-axloqiy ishlariga yordam beradi.

Amaliyotdan ma'lumki, barcha tanqidiy baholarni tasnif qilish mumkin. Ular quyidagilarni qamrab olishi mumkin:

Ruhtlantiruvchi – tanqid ("Hechqisi yo'q. Keyingi safar yaxshiroq bajarasiz. Hozir esa unchalik o'hshamabti");

Tanqid – umid ("Umid qilamanki, keyingi safar bu vazifani yaxshiroq bajarasiz");

Tanqid – ta'na ("Iye, Sizni qarang? Men Sizga juda umid bog'lagan edim!");

Tanqid – qayg'urish ("Men Sizni yaxshi tushunapman, Sizning ahvolingiz menga ma'lum, ammo Siz meni ham tushining, axir, ish bajarilma-ganku");...

...Tanqid – da'vat ("Shuncha xatoga yo'l qo'yg'an ekansiz, vaziyatdan qanday chiqishni faqat o'zingiz hal qiling")².

Bundan tashqari, "Tanqid – ta'na", "Tanqid – taqqoslash", "Tanqid – maqtov", "Tanqid – tashvishlanish", "Tanqid – hayratlanish", "Tanqid – kinoya", "Tanqid – xavfsirash" kabi tanqidiy baholarning tasniflari borki, iqtidorli o'quvchini "Sizni qarangu, men siz haqingizda juda yuqori fikrda edim!", "Bo'lib o'tgan ishlarga, aftidan, faqat siz o'zingiz aybdor emassiz", "Men keyingi safar ham ish shunday darajada bajariladi, deb xavfsirayapman", - degan so'zlar bilan tanqid qilsak, bu tanqidimiz unga salbiy ta'sir qilmaydi, balki o'z ishiga jiddiy yondashishga, yangi bir ishtiyoq bilan e'tibor qaratishiga sabab bo'ladi. Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, tanqidning har qanday shakli o'quvchiga o'qituvchisini hurmat qilgan taqdirdagina samarali ta'sir qilishi mumkin. O'quvchilar, ayniqsa, iqtidorli o'quvchilar o'qituvchilarining o'zlari haqidagi mulohazalarini qadrlaydilar. O'qituvchilarining doimiy e'tiborida bo'lish uchun o'quvchilar vaziyatni to'g'rilash uchun barcha kuch va imkoniyatlarini sarflaydilar.

Tanqid borasida yana shunga e'tibor qaratish kerakki, agar o'quvchi o'qituvchisining fikriga xayrixoh bo'lmasa, salbiy baholarni ijobiylari bilan

¹ Hasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. -T.: "Ilm ziyo", 2011. - 34 b.

² Ishmuhamedov R. Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. - T.: 2017. - 233-234 b.

qo'shib olib borish zarur. Chunki, bu vaziyatda o'quvchi tanqid tufayli "sinib qolishi" mumkin.

Xulosa. Iqtidorli o'quvchilar qobiliyatini rivojlantirish, qiziqishlarini boyitishning keng tarqalgan shakli loyiha usuli hisoblanadi. Muayyan o'quvchilarning qiziqishlari va iste'dod darajalarini hisobga olgan holda, ulardan u yoki bu loyihani bajarish taklif etiladi: amaliy muammoni tahlil qilish va yechimini topish, o'z ishlarini tadqiqot rejimida qurish va uni o'z pozitsiyalarini himoya qilish uchun ochiq hisobot bilan yakunlash. Ta'limning ushbu shakli iqtidorli bolaga tengdoshlari bilan o'qishni davom ettirish va tanish ijtimoiy munosabatlarga kirishish, o'z bilimlarini sifat jihatidan chuqurlashtirish va uning iqtidori mazmuniga mos keladigan sohada o'z resurslarini aniqlash imkonini beradi. Loyihalar individual yoki guruh bo'lishi mumkin. Ishning guruh shakli va loyihalarning ijtimoiy ahamiyatga ega fuqarolik yo'nalishi bolalarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, maktablarda iqtidorli bolalar uchun maktab va maktabdan tashqari ta'limni uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, iqtidorli bolani oddiy maktabda individual reja bo'yicha o'qitish uning iste'dodli mutaxassislar bilan muloqotni ta'minlaydigan, jiddiy tadqiqot ishlarini o'z ichiga olgan maktabdan tashqari ta'lim muassasalari - matematik, tarixiy-arxeologik, lingvistik to'garaklar, bolalar ijodiy markazlaridagi ishtiroki bilan birlashtirilishi mumkin. Bunday maktabdagi dars soatlari umumiy ta'lim maktabida ushbu fan bo'yicha soatlarni qisqartirish orqali qoplanishi kerak.

O'quv jarayonining muayyan nuqtalarida o'quvchilarni guruhlash g'oyasiga asoslangan ta'limni tashkil etishning turli shakllaridan foydalanish ommaviy umumta'lim maktablari sharoitida iqtidorli bolalar uchun ta'lim jarayonini farqlashda katta yordam berishi mumkin. U yoki bu shaklni tanlash maktabning xususiyatlariga bog'liq: uning hajmi, an'analari, malakali kadrlar mavjudligi, binolar, moliyaviy imkoniyatlar, maktabdagi iqtidorli bolalar soni va boshqalar.

Qaysi metod, usuldan foydalanishdan qat'iy nazar iqtidorli bolalar bilan ishlashda quyidagi tamoyillarga suyanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ta'limni individuallashtirish tamoyili, uni amalga oshirishning eng yuqori darajasi iqtidorli

bolaning individual rivojlanishi dasturini ishlab chiqishdir;

- taqdim etilayotgan imkoniyatlarning maksimal xilma-xilligi tamoyili;

- iqtidorli bolalarning maktabdan tashqari mashg'ulotlari saviyasini to'garaklar, seksiyalar, tanlovlar, nodavlat ta'lim muassasalarida ishlash orqali oshirish tamoyili;

- iqtidorli bolalar bilan individual ishlashda fanlararo aloqadorlik muammosiga e'tiborni kuchaytirish tamoyili;

- o'qituvchining minimal roli bilan talabalarning birgalikda ishlashi uchun sharoit yaratish tamoyili.

Takliflar. Shuni aytib o'tish zarurki, iqtidorli o'quvchilarning bilimlarini boyitishga qaratilgan o'quv dasturlari quyidagi jihatlariga ega bo'lishi kerak:

- 1) keng (global) mavzular va muammolarni o'rganishni o'z ichiga oladi, bu bizga iqtidorli bolalarning umuminsoniy va umumiylikka bo'lgan qiziqishini, ularning umumlashtirishga bo'lgan intilishlarini, nazariy yo'nalishini va kelajakka qiziqishini hisobga olish imkonini beradi;

- 2) turli bilim sohalariga oid mavzu va muammolarni integratsiyalashuviga asoslangan o'qitishda fanlararo yondashuvdan foydalanish. Bu iqtidorli bolalarning o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, shuningdek, turli xil hodisalarni o'zaro bog'lash va turli xil muammolarga yechim topish qobiliyatini rivojlantiradi;

- 3) iqtidorli bolaning manfaatlarini hisobga olish va bolaning o'zi tanlagan mavzularni maksimal darajada chuqur o'rganishni rag'batlantirish;

- 4) bilim olish yo'llarini o'rganishga ko'maklashish;

- 5) mazmunan ta'lim jarayonining moslashuvchanligi va o'zgaruvchanligini ta'minlash, o'qitish shakllari va usullari, ularning o'zgaruvchan ehtiyojlarining tabiati va individual faoliyat usullarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolalarning o'zlari tomonidan moslashtirish;

- 6) o'rganishda mustaqillikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

- 7) axborot olishning turli manbalari va usullari mavjudligi va ulardan erkin foydalanishni kafolatlash;

8) zarur jihozlar bilan jihozlangan maxsus o'quv xonalari, maxsus o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlash, dala tadqiqotlarini tashkil etish, laboratoriyalar, muzeylar va hokazolarda "ish o'rinlari" yaratishgacha o'quv holati va o'quv materialini sifat jihatidan o'zgartirishni ta'minlash;

9) bolalarni o'z ishining natijalarini mazmunli mezonlar asosida baholashga o'rgatish, ularning jamoatchilik muhokamasida va o'z

g'oyalari va ijodiy faoliyat natijalarini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;

10) aks ettirish, o'z-o'zini bilish, shuningdek, boshqa odamlarning individual xususiyatlarini tushunishni rivojlantirishga ko'maklashish;

11) har bir iqtidorli bolaning o'ziga xos shaxsiyatini hisobga olgan holda individuallashtirilgan psixologik yordam va boshqa qo'llab-quvvatlash turlarini o'z ichiga oladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Антонова Е.Е. Концепция обучения одарённых студентов в высших педагогических учебных заведениях // Педагогика, психология. – № 3 (3). – 2010. – 20-23с.

2. Ishmuhamedov R. Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. - T.: 2017. - 116-b.

3. Yusupova X.R. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodlari. <https://zenodo.org/records/8062760>

4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. - T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2022. - 239-b.

5. Hasanov SH. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. - Andijon: "Tezkor Nashr". 2022. - 26-b.

6. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. - T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2022. - 243-b.

7. Husanboyeva Q. va boshq. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. - T.: "Innovatsiya-Ziyo". 2020. - 127-b.

8. Mamarasulov B.SH. Boshlang'ich ta'limda inkyuziv ta'lim. Darslik. -Andijon: "Durdona materiallar", 2024. - 7-b.

9. Hasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. - T.: "Ilm ziyo", 2011. - 34 b.

10. Ishmuhamedov R. Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. - T.: 2017. 233-234 b.